

I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi 12 460,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 6,5 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (2018 yilning shu davriga nisbatan, foizda)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (7,6 % ga), Buloqboshi (7,2 % ga), Xo'jaobod (7,2 % ga), Paxtaobod (7,1 % ga), Shahrixon (6,5 % ga) va Bo'ston (6,4 % ga) tumanlarida tashkil etdi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Jalaquduq (4,7 % ga), Baliqchi (3,5 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman (shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (32,9 %), Shahrixon (13,5 %), Asaka (9,7 %), Qo'rg'ontepa (8,5 %) va Andijon (5,4 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shaharlar va tumanlar nomi	Ming so‘m	2018 yilga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha:	4 023,1	104,6
Andijon sh	9 347,4	105,8
Shahrixon	5 729,1	104,3
Qo‘rg‘ontepa	4 961,9	104,1
Asaka	3 756,2	104,0
Xo‘jaobod	3 266,2	105,0
Paxtaobod	2 783,5	105,1
Andijon	2 571,7	103,7
Buloqbohi	2 570,9	105,4
Baliqchi	2 507,8	101,5
Jalaquduq	2 503,2	103,0
Xonobod sh.	2 501,4	103,8
Izboskan	2 191,0	104,2
Oltinko‘l	2 068,4	103,8
Ulug‘nor	1 965,6	104,3
Bo‘ston	1 964,6	104,4
Marhamat	1 849,2	103,4

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,6 % ga oshib, 4 023,1 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil 3 411,3 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (9 347,4 ming so‘m), Shahrixon (5 729,1 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (4 961,9 ming so‘m) kuzatildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo va umumiy
ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi**



Mln.so‘m


2018 yilga nisbatan,
foizda

Viloyat bo‘yicha:	1 564 102,6	118,4
Bo‘ston	14 121,4	40,2 m
Oltinko‘l	19 101,7	4,0 m
Asaka	95 556,1	2,1 m
Xonobod sh.	7 162,2	133,3
Xo‘jaobod	6 029,8	125,6
Andijon sh.	1 267 961,7	118,6
Qo‘rg‘ontepa	11 734,9	113,5
Buloqboshi	6 558,3	109,0
Jalaquduq	6 926,8	91,4
Baliqchi	17 077,3	89,2
Marxamat	8 697,8	87,7
Andijon	43 869,5	87,5
Shahrixon	39 532,4	77,3
Paxtaobod	12 025,4	77,2
Ulug‘nor	280,0	76,0
Izboskan	7 467,4	34,9

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdodagi ulushi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2018 yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 87,4 % ini tashkil qildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 7 176,0 mlrd. so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eng katta ulushi Ulug'nor - 99,8 %, Qo'rg'ontepa - 98,9 %, Jalaquduq - 98,5 %, Izboskan - 98,5 % va Xo'jaobod - 98,3 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar - 69,0 %, Bo'ston - 89,9 % va Asaka tumanlarida - 92,1 % qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 2 545,5 mlrd. soʻmni yoki 2018-yilning shu davriga nisbatan 97,0 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasi 2018 yilning shu davriga nisbatan Andijon shahar 87,9 %, Izboskan 97,0 % ga kamayish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,2 % ga oʻsdi va 1 766,6 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 69,4 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, foizda



2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdoda yirik korxonalar savdo aylanmasi

	Mln. soʻmda	2018 yilga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	778 828,4	85,5
Qoʻrgʻontepa	107 567,5	113,4
Andijon	148,3	106,6
Paxtaobod	255,5	105,0
Andijon sh.	654 734,1	82,9
Shahrixon	14 893,9	82,8
Oltinkoʻl	225,7	82,0
Baliqchi	162,6	79,0
Marxamat	124,6	59,8
Ulugʻnor	88,9	57,3
Boʻston	72,5	48,4
Jalaquduq	129,2	46,9
Xoʻjaobod	136,7	35,4
Izboskan	288,8	5,3
Xonobod sh.	107 567,5	-
Buloqboshi	0,0	-
Asaka	0,0	-

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo aylanmasining 2018 yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Qoʻrgʻontepa tumani (113,4 %), Andijon shaharda (106,6 %) va Paxtaobod tumani (105,0 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar, Asaka va Buloqboshi tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxonalar faoliyati boʻlmaganligi kuzatilgan.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga
nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
sub'ektlarining savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**




**2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga
nisbatan mikrofirmalarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**




**2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga
nisbatan kichik korxonalarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**



**2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga nisbatan
yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon shahar (4 316,1 mln. so'm) va Andijon tuman (3 640,7 mln. so'm) larida mavjud bo'lib, jami 2018 yilga nisbatan 72,8 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 5,8 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyati Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi” bo'limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53